

BILINGVIZM. IKKI TILLILIKNING JAMIYATGA TEGADIGAN FOYDASI

Ramazonov Ravshan

Student of Uzbekistan State World Languages University

Annotasiya. Ushbu maqolada bilingvizm o'zi nima? Uning qanday turlari mavjud. Ikki tillilikning ijobiy va salbiy tomonlari hamda uning o'zgaruvchan xususiyatlari bayon etiladi.

Kalit so'zlar. Bilingvizm, bilingv, lingvistika, monolingv, kognitiv, madaniyat.

Bilingvizm, ikki tillilik-ikki tilni yoki muayyan adabiy til va uning dialektini mukammal bilish. Bilingvizm ijtimoiy talab yoki biror sabab bilan yuzaga keladi. Uning tabiiy vujudga kelishiga bir davlat hududida ikki va undan ortiq xalq vakillarining jips yashashi sabab bo'ladi. Bilingvizm insonlarga turli tillarda gapirish, yozish va o'qishda malakali bo'lish imkonini beradi. U ikki tilli kommunikatsiya qilish va ma'naviy aloqalarni o'rgatishda eng muhim rol o'ynaydi. Ikki tilni bilish kognitiv va intellektual rivojlanish uchun muhimdir. Bilingvizmga ega bo'lgan insonlar ma'nolarni tushunish, tushunchalarni alohida qo'llash va muhokama qilishda bir qancha qulayliklarga ega bo'ladi. Bilingvizm insonni o'zgaruvchan va mantiqiy fikrlovchi qiladi. Ular turli tillardagi jamoatlar bilan o'zaro integratsiyada o'zgaruvchan bo'ladi. Bu global jamiyatda o'z fikrini ifodalash va tajribalarini oshirishga ko'mak beradi.

Bilingvizmga ega bo'lgan kishilar, turli tillarda ijodiy ishlar yig'ish, she'rlar yozish va ijodiy faoliyatlar ko'rsatishga muvofiq bo'lishadi. Bu esa ularni san'at va adabiyot sohasida yuksalishiga sabab bo'ladi.

Bilingvlarning til o'rganishi ancha mushkul masala. Agar bola ikki va undan oshiq tilda so'zlashadigan oilada o'ssa, u ikkala tilni ham bema'lol o'rgana oladi va ushbu tillarda ravon so'zlashadi. Biroq bilingvlarning so'z boyligi har bir til monolingvistik egasining so'z boyligiga qaraganda pastroq bo'ladi. Savodxonlik borasida ham ancha oqsoqlanishadi. Ikkala tilni savodli o'rganish uchun ikki til

yozuvi bir xil tizimda bo'lishi lozim. Agar farqlanadigan bo'lsa, bu o'rganuvchining har bir tilda qanday ta'lim olganiga bog'liq bo'ladi.

Maqolani o'qish jarayonida ehtimol kelajakda farzandlaringizni ikki tilli qilib tarbiyalash yoki o'zingizda bilingvist bo'lish istagi tug'ilgan bo'lishi mumkin. Ha, buni shakllantirish mumkin. Xo'sh, qanday qilib?

Ikki tilda so'zlashadigan oilada ulg'ayish. Bu bolalaringizga nisbatan qo'llanadigan eng samarali usul sanaladi. Ona tilingizdan farqlanadigan tilga ega chet davlatlarga o'qish, ishlash, yashash uchun ko'chib borish. Bu sharoitda nafaqat o'zingiz, balki bolalaringizda ham ikki tillilik shakllantirilishi mumkin. Ikkinchi tilni o'rganishga shaxsiy ishtiyoq mavjudligi. Til o'rganish shunchaki zavqli jarayon emas, u o'ziga xos e'tibor va kuch talab qiladigan kognitiv jarayon hisoblanadi. Aqliy mehnatga qiziqadiganlar uchun til o'rganish chinakamiga zavqli mehnat bo'lishi mumkin. Diniy motiv tufayli. Diniy ta'lim olish uchun ikkinchi tilni o'rganish holatiga asrlar davomida guvoh bo'lib kelyapmiz. Bunda ham ikkinchi tilni o'rganish ham oilada, ham insonning o'z xohishiga ko'ra amalga oshishi mumkin. 1930-1950-yillarda olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, bilingv bolalar monolingv bolalar bilan taqqoslaganda salbiy sharoitda bo'lgan. Ular maktabda yomon o'qigan, testlarni past bahoda topshirgan va hokazo. Tadqiqotlar xulosalaridan kelib chiqadigan bo'lsak bilingvizm aqliy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi va bolani tillar muloqotida chalkashtiradi. Ammo bu xulosalar 70-90 yil ilgargi tajribalar asosida olingan. Ikkinchi til o'rganilayotganda shubhasiz ikki tilli kishining etnik o'ziga xosligi o'zgaradi. Bu bizga ikki madaniyatlilik fenomenining paydo bo'lishi haqida gapirishga imkon beradi. Inson bir vaqtning o'zida ikki madaniyatning tashuvchisiga aylanadi. Ikki tillilikning paydo bo'lishi davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi, ikki tilli (yoki ko'p tilli) a'zolar sonining ortishiga olib keladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, individual ikki tillilik qoida tariqasida cheklangan madaniy aloqalar bilan rivojlanadi. Agar aloqalar kengroq va faolroq bo'lsa bunday sharoitda guruh yoki ommaviy ikki tillilik rivojlanadi. Shuningdek ommaviy ikki tillilik ko'p millatli davlatlarda yaxshi rivojlangan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Barinova I.A. Nesterova O.A. ikki tilli shaxsning ba'zi xususiyatlari haqida: Filologiya fanlari. Nazariya va amaliyotga oid savollar. (2015)
2. Colin Baker, „Foundations of Bilingual Education and Bilingualism” Multilingual Matters, (2011)

LANGUAGE FOR COMMUNICATION OF IDENTITY

Ravshanova Rayhona

2155 group

Abstract. *This article analyzes the introduction of the relationship between language and identity one desires to portray affects one's linguistic choices, and inversely how one's linguistic choices affect the identity displayed to others.*

Key words. *Personal identity, language, social group*

As Thornborrow explains, one's identity is not always fixed. Instead it is something which we are constantly building and negotiating all our lives'.¹⁰ Since, as mentioned above, language is one of the most basic ways people can establish their own identity and shape others' views of them; it is natural that people will use language as a tool to do just that, although often this is unconscious. Chambers tells us that people unconsciously express their identity through their dress, manners, possessions and speech. He goes on to explain that speech is much less manipulable and much harder to control consciously, and is therefore much more revealing of our identity.¹¹ People are aware of this, both consciously and unconsciously, and will therefore adapt the way they speak as far as possible to portray a certain version of their identity. The language a speaker uses is decoded by others, which allows them to read the identity of the speaker. As this decoding depends on the specific language as used by speakers, linguistic manipulations and adaptations can be employed to purposely alter the decoding of